



2019 yilning yanvar- may oylarida Sirdaryo viloyatining sanoat ishlab chiqarishi


RAQAMLAR:

- Sanoat ishlab chiqarish hajmi **2806,3 mlrd,so'mni**, sanoat ishlab chiqarish indeksi – **100,5% ni** tashkil etdi;
- Aholi jon boshiga ishlab chiqarilgan sanoat mahsuloti hajmi o`rtacha **3375,4 ming,so`mni** tashkil etdi
- Iste'mol tovarlari ishlab chiqarishning o'sish sur'ati – **115,3%**
- Iste'mol tovarlarning jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi - **34,8 % ni** tashkil etib, aholi jon boshiga o`rtacha **1174,8 ming,so`mga** to`gri keldi.
- Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi – **41,4%**


2019 yilning yanvar-may oylarida viloyat korxonalarini tomonidan 2806,3 mlrd.so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan ishlab chiqarish indeksi 100,5% ni tashkil etdi.

Jami sanoat ishlab chiqarish hajmi o'shishining asosiy omili bo'lib elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash 8,0 % ga, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish 3,8 % ga, o'sishi hisoblandi.

2019 yilning yanvar-may oylarida asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish tarkibi, foizda



2019 yilning yanvar-may oylarida asosiy iqtisodiy faoliyat turlarini sanoat ishlab chiqarishning o`shishiga qo`shgan hissasi



Tog'- kon sanoati va ochiq konlarni ishlash.

Tog'- kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalarini tomonidan 2019 yilning yanvar-may oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 5,3 mlrd.so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,2 % ni tashkil etdi.

Tog'-kon sanoatida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajm indeksi 93,2% ni tashkil etganni kuzatish mumkin.




Ishlab chiqaradigan sanoat (qayta ishlash sanoati).

Qayta ishlash sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 1467,2 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 52,3 % ni) tashkil etdi.


2019 yilning yanvar-may oylarida sanoatning mazkur tarmog'ida sanoat ishlab chiqarish indeksi 95,0 % ni tashkil etgani kuzatildi.

Hususan 2018 yilning yanvar-may oylariga nisbatan mahsulotlar ishlab chiqarishning yuqori o'sish indeksi quyidagi faoliyat turlarida kuzatilmoqda, boshqa tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish indeksi 118,3 % ni, boshqa toifalarga kiritilmagan mashina va uskunalar ishlab chiqarish indeksi 152,7 % ni, asosiy farmaseftika mahsulotlari ishlab chiqarish indeksi 104,9 % ni hamda teri va charm mahsulotlari ishlab chiqarish indeksi 104,2 % ni tashkil etgani kuzatildi.










Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmog'ining ulushi 4,8 % ni (2018 yilning yanvar-may oylarida - 4,5 %), o'rta-yuqori texnologiyali - 5,5 % (5,7 %), o'rta-quyi texnologiyali - 12,8 % (12,6%) va quyi texnologiyali - 76,9 % (77,2 %) tashkil etdi.



Yanvar-may oylarida ishlab chiqarishning texnologik tarkibi bo'yicha ishlab chiqaradigan sanoat tarkibi, %



**Yanvar-may oylarida Ishlab chiqaradigan sanoatda
yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat
mahsulotlarini ishlab chiqarish**

2018 yil	Ishlab chiqaradigan sanoat mahsulotlari	2019 yil	2018 yil yanvar-mayga nisbatan, %
238,3	Sellyuloza, ming kg 90% 	620,7	260,4
15,2	Un, ming tonna 	15,4	101,3
770,1	Ho`jalik sovuni tona 	538,3	69,9
1492,0	Kalava ip, tonna 	1218,0	81,6
27,1	Paxta tolasi. ming tonna 	17,2	63,3
43,0	Paxta urug'i, ming tonna 	26,9	59,2
27,7	Kunjara, ming tonna 	14,7	53,0
5,9	O'simlik yog'i (tozalangan), ming tonna 	2,5	41,8
400,5	Aroq – mig litr 100 % spirt 	109,4	27,3

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni kondittsiyalash.



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni kondittsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 1250,7 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 44,6 % ni) tashkil etdi.



O'tgan yilning mos davriga nisbatan elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni kondittsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi indeksi 108,0 % ga oshganligi kuzatildi.

2019 yilning yanvar-may oylarida sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash hajmi indeksi 108,4 % ni va gazsimon yonilg'ini ishlab chiqarish va taqsimlash hajmi indeksi 92,0 % ni tashkil etgani kuzatildi.

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni kondittsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

2018 yilning Yanvar-mayda ishlab chiqarilgan	Ishlab chiqaradigan sanoat mahsulotlari	2019 yilning Yanvar-mayda ishlab chiqarilgan	O'sish sur'ati, %
5948,2	Elektroenergiya, mln kVt/s 	6646,0	111,7
109,7	Issiqlik energiyasi, mln Gkal 	78,5	71,6

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish.

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 83,0 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 2,9 % ni) tashkil etdi.

O'tgan yilning mos davriga nisbatan sanoat ishlab chiqarish indeksi 103,8 % ni tashkil etgani kuzatildi.

Shuningdek 2018 yilning yanvar-may oylariga nisbatan hajm indeksleri shahar ho`jaligining qayta foydalanishga yaroqsiz havfsiz chiqindilarini yig`ish bo`yicha xizmatlar 20,1 % ga hamda oqova suvlar xizmatlari 0,4 % ga oshganligi kuzatildi.



Suv bilan ta'minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig`ish va utilizatsiya qilish sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

2018 yilning Yanvar-mayda ishlab chiqarilgan	Ishlab chiqaradigan sanoat mahsulotlari	2019 yilning Yanvar-mayda ishlab chiqarilgan	O'sish sur'ati, %
--	---	--	-------------------

Suvga ishlov berish va suv quvurlari bo`yicha taqsimlash xizmatlari, mln so`mda

3680,9



5342,0

145,1

Shahar ho`jaligining qayta foydalanishga yaroqsiz havfsiz chiqindilarini yig`ish bo`yicha xizmatlar, mln so`mda

882,4




3250,4

368,3

Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish.


Tayyor mahsulotlar turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida iste'mol tovarlar ishlab chiqarish hajmi 976,7 mlrd.so'mni tashkil etdi va 2018 yilning yanvar-may oylariga nisbatan 115,3 % ga o'sishi ta'minladi, jami sanoatdagi ulushi esa 34,8 % ni tashkil etdi.

2019 yilning yanvar-may oylarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari



2018 yilning yanvar-may oylariga nisbatan iste'mol tovarlari tarkibida nooziq-ovqat tovarlari ishlab chiqarish ulushining 59,0 % dan 2019 yilning yanvar-may oylarida 63,5 % ga oshishi kuzatilmoqda.

Yirik va kichik biznes sub'ektlari tomonidan iste'mol tovarlari ishlab chiqarish tarkibi, %




Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida sharob va aroq mahsulotlari 0,6 % ni (2018 yilning yanvar-may oylarida 2,4 %) tashkil etdi.

Hududlarning sanoat ishlab chiqarishi.

Viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p Shirin shahri 1173,8 mlrd so'm (viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmning 41,8 % ulushini), Sirdaryo tumani 457,3 mlrd so'm (viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmning 16,3 % ulushini), Guliston shahri 391,4 mlrd so'm (viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmning 13,9 % ulushini), Boyovut 157,6 mlrd so'm (viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmning 5,6 % ulushini) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

2019 yilning yanvar-may oylarida hududlarning sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi




Shu bilan birga eng kam ulush Sardoba tumani 82,8 mlrd so'm (2,9 %) ,Xovos tumani 56,8 mlrd so'm (2,0 %), Guliston tumani 41,5 mlrd so'm (1,5 %) hissasiga to'g'ri keladi

2019 yilning yanvar-may oylarida hududlarda aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish.

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish viloyat bo'yicha 3375,4 ming so'mni tashkil etib tuman va shaharlarning tabaqalanishi tahlil qilinganda, Shirin shahrida 63448,8 ming so'mni tashkil etib o'rtacha viloyat darajasi ko'rsatkichidan yuqoriligini ko'rsatmoqda.

2019 yilning yanvar-may oylarida hududlarda aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi,




Tuman va shaharlar kesmida aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sura'ti yuqoriligi quyidagi tumanlarda kuzatilgan, Boyovut tumanida 145,2%, Mirzaobod tumanida 136,5 % hamda Oqoltin tumanida 115,5 %. Shu bilan birga o'sish sura'ti kamayishi Guliston tumanida 93,7 % va Sardoba tumanida 68,0% ni tashkil etgan.

Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning hissasi.

2019 yilning yanvar-may oylarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan 1163,1 mlrd.so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan (jami sanoat mahsulotlarining 41,4 foizi) yoki 2018 yilning tegishli davriga nisbatan 113,6 foizni tashkil qilgan.

2019 yilning yanvar-may oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'ati



Sirdaryo viloyati Statistika boshqarmasi
Sanoat statistikasi bo'limi

Aloqa telefoni: (0371) 230-86-23